

ANDIJON VILOYATIDA bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida, Andijon viloyatida jami 4 494,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 117,3 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	4 494,6	117,3
Andijon shahar	1 364,0	125,0
Xonobod shahar	83,5	108,2
Oltinko'l tumani	129,8	105,9
Andijon tumani	340,9	113,2
Baliqchi tumani	89,7	126,9
Bo'ston tumani	134,1	110,6
Buloqboshi tumani	100,3	143,0
Jalaquduq tumani	121,3	107,5
Izboskan tumani	124,8	110,7
Ulug'nor tumani	56,7	109,8
Qo'rg'ontepa tumani	117,2	117,7
Asaka tumani	134,9	106,8
Marhamat tumani	162,5	110,1
Shahrixon tumani	255,1	109,7
Paxtaobod tumani	148,9	109,1
Xo'jaobod tumani	125,1	142,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-aprel oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 79,4 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 123,7 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,6 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,1 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 91,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	336,5	190,2	87,2
o'sish sur'ati, % da	210,2	116,2	4 992,6
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 836,9	424,0	186,3
o'sish sur'ati, % da	123,6	93,7	62,8
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 393,7	-	-
o'sish sur'ati, % da	112,6	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 653,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 181,7 % ni tashkil etgan, umumiy hajmdagi ulushi 14,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 54,5 % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni tashkil etgan holda 2 447,1 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 31,0 % ni yoki 1 393,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Andijon viloyati	653,9	2 447,1	1 393,7	181,7	109,5	112,6
Andijon shahar	253,4	1 033,2	77,4	125,0	117,9	102,4
Xonobod shahar	0,5	77,0	6,0	108,2	108,2	127,3
Oltinko'l tumani	2,1	112,7	15,0	105,9	103,1	115,0
Andijon tumani	195,6	119,8	25,5	113,2	72,2	112,3
Baliqchi tumani	3,0	54,2	32,5	126,9	136,3	106,5
Bo'ston tumani	7,2	109,8	17,1	110,6	104,7	117,1
Buloqboshi tumani	39,6	37,1	23,6	143,0	131,5	106,7
Jalaquduq tumani	15,0	53,5	52,9	107,5	106,9	108,8
Izboskan tumani	2,5	105,6	16,7	110,7	107,7	120,6
Ulug'nor tumani	3,0	45,0	8,8	109,8	106,4	128,6
Qo'rg'ontepa tumani	14,1	48,2	55,0	117,7	102,2	112,3
Asaka tumani	3,2	54,4	77,3	106,8	111,9	105,4
Marhamat tumani	3,0	105,6	53,9	110,1	103,1	120,7
Shahrixon tumani	5,5	196,0	53,5	109,7	105,8	116,0
Paxtaobod tumani	2,8	78,4	67,7	109,1	104,0	113,1
Xo'jaobod tumani	35,2	78,5	11,5	142,2	116,2	106,2

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Buloqboshi tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 720,8%), va Oltinko'l tumanida (650,1%) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

M.Sotvoldiyev
74 224-29-37 (6020)

Manzil:

